

# XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

---

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

**PUBLIC EDUCATION**

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2022**

**2-son**

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

|                                                                                     |                                         |                                                                                                                               |
|-------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|    | <b>TAHRIRIYAT</b>                       |                                                                                                                               |
|                                                                                     | 4                                       | Ilm izlash, ijod qilish – inson kashf etgan amallar, faoliyatlar ichida eng serzahmati                                        |
|    | <b>TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI</b>     |                                                                                                                               |
| N.Abdullayeva                                                                       | 5                                       | Pedagogik mas'uliyatni shakllantirish – kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning integral komponenti sifatida              |
| A.Rasulov                                                                           | 10                                      | Umumiy o'rta ta'lim maktablarida zamonaviy ta'lim klassteri sharoitida iqtisodiyot bilim asoslari fani o'qitishning zarurligi |
| D.Axmadjonov                                                                        | 13                                      | Akseologik yondashuv asosida bag'rikenglik kompetensiyasini rivojlantirish                                                    |
| T.Sultonov                                                                          | 17                                      | Ilk boshlang'ich ta'lim pedagogikasining muhim jihatlari va ularning izohlari                                                 |
| S.Toshboyev                                                                         | 21                                      | Ta'limda innovatsiyalar va ularning tahlili                                                                                   |
|    | <b>TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI</b>     |                                                                                                                               |
| J.Ravshanov                                                                         | 25                                      | O'quvchilarda tahliliy kompetensiyalarni shakllantirishda an'anaviy ta'lim metodlaridan foydalanish                           |
| K.Abdullayev                                                                        | 27                                      | Adabiyot darslarida tarix, tasviriy san'at, musiqa fani materiallaridan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari         |
| H.Bakiyeva                                                                          | 31                                      | Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirish                              |
| M.Mamadjanova                                                                       | 34                                      | Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini mantiqiy masalalarni yechishga metodik tayyorgarligini ta'minlash                   |
| G'.Nabiyev                                                                          | 38                                      | Maktab o'quvchilarida tadbirkorlik qobiliyatlarini shakllantirish                                                             |
| Z.Umarova                                                                           | 40                                      | Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodikasi                                            |
| D.Ismoilova                                                                         | 44                                      | K.D.Ushinskiyning pedagogik merosini o'qitish interfaol metodlar                                                              |
|  | <b>TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT</b> |                                                                                                                               |
| Sh.Qo'qonboyeva                                                                     | 47                                      | Bo'lajak fizika o'qituvchilarining boshlang'ich kasbiy kompetentligining shakllanganlik darajasini aniqlash                   |
|  | <b>ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI</b> |                                                                                                                               |
| R.Musurmonov<br>A.Suyarov                                                           | 52                                      | Ta'lim jarayonida zamonaviy yondashuv imkoniyatlari                                                                           |
| F.Maxmudova                                                                         | 56                                      | Ta'limda integrativ yondashuvni tashkil etish pedagogik muammo sifatida                                                       |
| D.Ximmataliyev<br>B.Xayridinov                                                      | 59                                      | Masofaviy ta'limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya vositalarining ahamiyati                                               |
| S.Qorayev<br>N.Tirkashev                                                            | 62                                      | Kompetensiyaviy ta'lim – o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarida sifat uyg'unligining asosi                                    |
| A.Abdullayev                                                                        | 65                                      | Professional ta'lim tizimida arxitekturaviy loyihalashni o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish                        |
| I.Qodirov                                                                           | 68                                      | Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida tarix darslarinin samarali tashkil etish                                |

|                                                                                     |                                               |                                                                                                                                                |
|-------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| S.Akbarova                                                                          | 71                                            | Kredit-modul tizimida ta'limning samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarni qo'llash                                                  |
| Y.Sultanov                                                                          | 76                                            | 3D texnologiyasi asosida "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish" fanini o'qitishning metodikasini takomillashtirish |
|    | <b>MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI</b>          |                                                                                                                                                |
| B.Narzullayeva                                                                      | 80                                            | Millatlararo do'stlik aloqalarini rivojlantirishda mahallaning o'rni                                                                           |
| S.Muxammadiyeva                                                                     | 83                                            | Talabalarni tarbiyalashda Ahmad Yassaviyning e'tiqod tarbiyasi haqidagi fikrlaridan foydalanish                                                |
|    | <b>TA'LIMDA MENEJMENT</b>                     |                                                                                                                                                |
| F.Jumanova                                                                          | 87                                            | Yangi O'zbekistonda bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mazmuni                                                |
|    | <b>HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA</b>               |                                                                                                                                                |
| M.Jo'raxo'jayev                                                                     | 90                                            | Imkoniyati cheklangan bolalar uyda yakka tartibdagi ta'limni tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari                                       |
|    | <b>MAKTABGACHA TA'LIM</b>                     |                                                                                                                                                |
| G.Nazirova<br>V.Ganiyeva                                                            | 95                                            | Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish yo'llari                                            |
| D.Ganiyeva                                                                          | 99                                            | Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlantirishda intellektual o'yinlarning ahamiyati                                                      |
| S.Achilova                                                                          | 103                                           | Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy fazilatlarini rivojlantirish xususiyatlari                                                           |
| D.Xalkuziyeva                                                                       | 107                                           | Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlashning pedagogik va psixologik jihatlari                                      |
| G.Mo'minova                                                                         | 110                                           | Maktabgacha yoshdagi bolalar axloqiy va irodaviy fazilatlarini tarbiyalashda o'yinning ahamiyati                                               |
| Sh.Ibragimova                                                                       | 114                                           | Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv, intellektual va shaxsiy rivojlanish sohalar                                                           |
| F.Abdug'opirova                                                                     | 119                                           | Kognitiv faoliyatni rivojlantirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash – pedagogik muammo sifatida                       |
|  | <b>PSIXOLOGIYA</b>                            |                                                                                                                                                |
| N.Abdullayeva                                                                       | 124                                           | O'smir o'quvchilarda mustaqillik fenomeni va uning konformlilik orqali tushuntirishi                                                           |
|  | <b>QIYOSIY PEDAGOGIKA</b>                     |                                                                                                                                                |
| K.Abrorxonova<br>D.Yunusova                                                         | 127                                           | O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida Finlandiya tajribasidan foydalanish istiqbollari                                  |
|  | <b>СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ</b> |                                                                                                                                                |
| Г. Тожибоева                                                                        | 131                                           | Диагностика профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов вопросах развития речи школьников                               |
|  | <b>МЕНЕЖМЕНТ В ОБРАЗОВАНИИ</b>                |                                                                                                                                                |
| A. Margupov                                                                         | 138                                           | Управленческая деятельность – как необходимая составная часть руководителя                                                                     |

---

**D.O. XIMMATALIYEV,**

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti v.b. professori

**B.K. XAYRIDINOV,**

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, Pedagogika fakulteti, Ta'lim muassasalarining boshqaruvi yo'nalishi magistranti

## **MASOFAVIY TA'LIMDA ZAMONAVIY AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA VOSITALARINING AHAMIYATI**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada zamonaviy axborot va kommunikatsiya vositalaridan oqilona foydalanish hamda masofaviy ta'limda talabalarga bilim berish, darslarni tashkil etish haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** Masofaviy ta'limni tashkil qilish usullari, masofaviy ta'lim tizimi, ta'lim muassasasida masofaviy ta'lim, masofaviy ta'lim modellari.

В данной статье рассматриваются вопросы о рациональном использовании современных информационно-коммуникативных средств, а также об организации уроков, обучении студентов дистанционному обучению.

**Ключевые слова.** Методы организации дистанционного обучения, система дистанционного обучения, дистанционное обучение в образовательном учреждении, модели дистанционного обучения.

This article discusses the issues of the rational use of modern information and communication tools, as well as the organization of lessons, teaching students distance learning.

**Key words.** Methods of organizing distance education, distance education system, distance education in an educational institution, models of distance education.

**M**a'lumki, har qanday mamlakatning kelajagi yosh avlodning komil tarbiyasi va izchil taraqqiyoti bilan bog'liq. Aynan shuning uchun ham, yoshlar siyosati davlat taraqqiyotining davomiyligini ta'minlashga qaratilgan barcha strategiyalarda namoyon bo'ladi. Bu esa, mamlakat yoshlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, qulay shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish borasida keng ko'lamli ishlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ta'kidlaganidek, biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgilab oldik.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan yoshlar siyosati bo'yicha olib borilayotgan tub islohotlar kelajak avlod kamolotini ta'minlash, ularni jamiyatning eng muhim tashabbuskori sifatida kamol toptirish zaruratini amalga oshirishga qaratilgan. Yoshlar bandligini ta'minlash va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi" g'oyasi asosida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish bugungi kunning eng muhim vazifasi hisoblanadi.

O'zbekiston tomonidan qator xalqaro tashabbuslarning ilgari surilishi va ularning hayotga joriy etilishi, mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashda ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini

kiritish – masofaviy ta'limni tashkil etishning ahamiyati beqiyos.

Masofaviy ta'lim – eng yaxshi an'anaviy va innovatsion metodlar, o'qitish vositalari va shakllarini o'z ichiga olgan, axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim shaklidir. U masofadan turib o'quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o'qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lim majmuasidir.

Masofaviy o'qish – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta'lim tizimidir. U ta'lim oluvchiga ma'lum standartlar va ta'lim qonun-qoidalari asosida o'quv shart-sharoitlari va o'qituvchi bilan muloqotni ta'minlab beradi, talabadan ko'proq mustaqil ravishda shug'ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o'qish jarayoni ta'lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo'lishiga bog'liq emas.

Masofaviy ta'lim tizimi o'zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.

Zamonaviy texnologiyalar masofaviy ta'limni yangicha tashkil qilinishiga asos yaratadi. Bunday ta'limda pedagoglar, kompyuter dasturchilari va mutaxassisleri yordamida yangi o'qitish kurslarini yaratishlari lozim bo'ladi. Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchidan masofaviy o'qitish tizimiga tayyor bo'lmog'ini, ya'ni ilg'or o'qitish texnologiyalarni (Internet, Keys, TV – texnologiyalar va h.k.) o'zlashtirgan bo'lishini taqozo etmoqda.

Masofaviy ta'limda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo'ladilar. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy ta'lim jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan muhim funksiyalarni bajaradi.

Masofaviy ta'lim jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o'quv-uslubiy materiallarni o'zlashtiradi, nazoratdan o'tadi, o'qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa "vertikal o'quv guruhi" talabalari bilan muloqotda bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasasini boshqarishni avtomatlashtirish, o'quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy etish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda Oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi"ning eng asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ayni vaqtda, mazkur yo'nalish bo'yicha XXI asr talablariga mos keluvchi kontseptual qarashlar mavjud bo'lmaganligi sababli oliy ta'lim muassasalarining ayrim faoliyatlaridagina axborot tizimlarini joriy etilganini ko'rishimiz mumkin. Oliy ta'lim muassasasi faoliyatini to'liq axborotlashtirish yangi islohotlar hisobiga murakkablashib, ba'zi normativ-huquqiy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritilishini taqozo etadi. Buning uchun axborotlashtirishning eng birinchi vazifasi mavjud jarayonlarni qayta ko'rib chiqishdan iborat bo'ladi. Ushbu yo'nalishda Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Daniya, va Rossiya kabi davlatlarning tajribasi o'rganilganda, axborotlashtirishning asosiy maqsadi birinchi navbatda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan bo'lsa, keyingi o'rinda jarayonlarni avtomatlashtirish orqali oliy ta'lim muassasasi xodimlari va professor-o'qituvchilari faoliyatida ko'p takrorlanadigan vazifalar uchun ketadigan vaqtni tejashga qaratilgan. Ta'lim sifatini oshirishda asosiy e'tibor ta'lim kontentlarini yaratish va ulardan ochiq foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

Masofaviy ta'limda turli ta'lim modellari qo'llaniladi, biroq ularning barchasiga xos bir xususiyat mavjud, bu ham bo'lsa, unda barcha o'quvchi va o'qituvchilar masofa jihatidan ajratilishidir.

Barcha ta'lim turlari kabi masofaviy ta'limning ham har xil modellari mavjud. Bu ta'lim jarayonining quyidagi asosiy tarkibiy qismlari: fan mazmunining bayoni; o'qituvchilar bilan o'zaro bevosita va bilvosita muloqot; amaliy topshiriqlarning bajarilishi; talaba bilimini nazorat qilish va baholashdan iborat bo'ladi. Har bir model shu kabi tarkibni hamda uni amalga oshiruvchi texnologiyalarni qo'llaydi. Masofaviy ta'limning turli modellari nafaqat qo'llaniladigan texnologiyalar, balki boshqarilish darajasi, o'qituvchi va o'quvchilarning mas'uliyati bilan ham farqlanadi. Ayrim modellarda o'qituvchilar va ta'lim muassasasi, xuddi an'anaviy ta'lim tizimi auditoriyalarida o'qitilganidek, ta'lim jarayonini boshqarish funksiyasini to'liq saqlab qoladi. Boshqa turlarida esa, ta'limni boshqarish ta'lim oluvchilarga o'tadi.

Masofaviy ta'lim tizimi orqali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, tinglovchilar uchun masofaviy malaka oshirish imkoniyatini yaratish, ta'limning turli interaktiv shakllarini bir-biriga yaqinlashtirishga erishish mumkin. Bugungi kunda xorijda masofaviy ta'limdan shaxsiy reja asosida uydan turib bilim olish, universitet tomonidan tayyorlangan video-darslardan foydalanish, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish, shuningdek, bir vaqtning o'zida qo'shimcha tarzda boshqa yo'nalishlarda ta'lim olish va shaxsiy qiziqishlari bo'yicha salohiyatini oshirish tajribasi keng tatbiq qilinmoqda. Yurtimiz ta'lim muassasalarida joriy qilinayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasi ham kelajakda bu kabi imkoniyatlardan foydalanishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilarni xulosa qilib shuni aytish mumkinki, masofaviy ta'limni ta'lim muassasalariga joriy etilishi har tomonlama foyda keltiradi. Oliy ta'lim tizimida bu kompleksni joriy qilish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Respublika miqyosidagi barcha oliy ta'lim muassasalari kompyuter, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bilan yaxshi ta'minlangan. Ularning barchasi Internet tarmog'iga ulangan. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanib o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ular bilan individual ishlash mumkin. Ushbu texnologiyalarni ta'lim tizimiga keng joriy etish oliy ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan muammolarni o'z vaqtida hal etishga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909-son "2017-2021-yillarda Oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi. 20.04.2017 y.
2. Abdukadirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. monografiya; red. M. Sodikova. – T. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi FAN, 2009. – 145-b.
3. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan, 2009. –145-b.
4. Ayupov R.X., Shayakubov Sh. Sh. Interfaol ta'lim usullari va vositalari. –T.: TMI, 2016-y. –164-b.